

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“O'ZBEKISTONDA XORIJIY TILLAR” ELEKTRON ILMIY-
METODIK JURNAL VA INTERNET PORTALI**

AXBOROT XATI

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 7-fevraldagi 56-f-sonli Farmoyishi bilan tasdiqlangan “O`zbekiston Respublikasida 2020-yilda xalqaro va Respublika miqyosida o`tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik anjumanlar rejasini”da belgilangan tadbirlarni amalga oshirish va O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 13-fevraldagi “Vazirlik tizimidagi oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida 2020 yilda o`tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik anjumanlar rejasini tasdiqlash to`g`risida”gi №116-sonli buyrug`ida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish maqsadida **Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o`zbek tili va adabiyoti universiteti** sizlarni “O`zbekistonda xorijiy tillar” nomli elektron ilmiy-metodik jurnal va Internet portali, O`zbekistondagi Turkiya Elchixonasi, O`zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo`mitasi, Anqara Hoji Vali universiteti, N.A. Dobrolyubov nomidagi Nijniy Novgorod lingvistika universiteti bilan hamkorlikda **2020-yilning 15-iyun kuni “Madaniyatlararo muloqot va turizm” (“Intercultural communication and tourism”, “Межкультурная коммуникация и туризм”)** mavzusida o`tkaziladigan xalqaro masofaviy-onlayn ilmiy-amaliy konferensiyaga taklif etadi.

**ILMIY-AMALIY KONFERENSIYADAN KO'ZLANGAN MAQSAD
VA VAZIFALAR:**

- Madaniyatlararo muloqot va turizm sohasida qo`lga kiritilayotgan yutuqlardan ilmiy jamoatchilikni xabardor qilish;
- Turizm (adabiy turizm, ekoturizm, ziyorat turizmi)ning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish;
- Madaniyatlararo muloqot yo`nalishining boshqa fanlar bilan o`zaro aloqalarini o`rganish va rivojlantirish;

- Markaziy Osiyodagi madaniy yuksalishning yorqin aksi sifatida turizm taraqqiyoti, bugungi holati, rivojlanishi va muammolarini oʻrganish (“Ipak yoʻli taʼmi” va “Sharq bozori”);
- Turizmda kadrlar tayyorlash tizimini zamonaviylashtirish masalalarini muhokama qilish;
- “TopGear”, “Вокруг Света”, “NationalGeographic” kabi mashhur platformalar bilan hamkorlikda ishlash va Oʻzbekiston haqida dolzarb dasturlar tayyorlash muhokamasi;
- Xorijiy tillarni oʻqitishda madaniyatlarga muloqot va turizmning ahamiyatini tadqiq qilish;
- Madaniyatlarga muloqot va turizm masalalarini dunyoning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda onlayn vebinarda tahlil qilishdan iborat.

KONFERENSIYA QUYIDAGI SHO'BALAR BO'YICHA ISH OLIB BORADI:

1. Turizm va ta'lim: o'zaro ta'sir va rivojlantirish istiqbollari.
2. Ziyorat turizmi boshqarishning xalqaro tajribasi: anʼanalar va innovatsiyalar.
3. Globallashuv sharoitida xalqaro turizm tizimidagi madaniyatlararo aloqalar.
4. Bilingvizm va madaniyatlararo muloqot.
5. Diskursologiya va korpus lingvistikasi.
6. Tarjimashunoslik va madaniyatlararo muloqot.
7. Innovatsion faoliyat va turizm.

KONFERENSIYA ISHCHI TILLARI: o'zbek, ingliz, rus, fors, turk, fransuz, nemis va ispan tillari.

Konferensiya 2020 yilning 15 iyunidan 20 iyuniga qadar “O'zbekistonda xorijiy tillar” (www.fledu.uz) portalida oʻtkaziladi.

KONFERENSIYANI O'TKAZISH TARTIBI:

Konferensiyaning ochilish kuni – 15 iyun, 2020 yil.

Video ma'ruzalar taqdimoti va muhokamasi – 15-10 iyun, 2020 yil.

20 iyun kuni konferensiya ishi yakunlanadi. Konferensiya ishtirokchilari va maqola/videoma'ruzalar muhokamasida faol ishtirok etgan internet foydalanuvchilariga maxsus onlayn sertifikatlar yuboriladi.

Onlayn konferensiya ZOOM dasturida **conference.fledu.uz** platformasida oʻtkaziladi. Konferensiyaga yaqin ishtirokchilarga onlayn konferensiyaga ulanish havolasi yuboriladi.

Konferensiyaning yalpi yig'ilishi 2 kun davomida dasturda belgilangan vaqtda tashkil etilib, yo'nalishlar bo'yicha kelib tushgan maqolalar matn va video ko'rinishda platformaga joylashtiriladi.

Konferensiya materiallarining (matn, audiovizual shakldagi) elektron bazasi yaratiladi. Shuningdek, izohlar, savol-javoblar, fikr-mulohazalar har bir maqola ostidagi maxsus banda davom etadi (namuna: <https://fledu.uz/conference/online-scientific-practical-conference-the-role-of-mother-language-in-teaching-foreign-languages-problems-solutions-and-future-plans/>).

KONFERENSIYADA ISHTIROK ETISH SHAKLI: yalpi/ yo'nalishlar bo'yicha video ma'ruzalar; muhokamalarda ishtirok.

KONFERENSIYADA ISHTIROK ETISH UCHUN QUYIDAGILARGA E'TIBOR QARATILISHI LOZIM:

Ishtirokchilar konferensiyaga yuborayotgan maqolalarini matn ko'rinishdagi shakli va unda ko'tarilgan mavzu haqida 5-7 minutlik videoda gapirib berishlari lozim. Video ishtirokchining imkoniyatiga ko'ra professional kamera yoki mobil telefon kamerasida tasvirga olinishi mumkin.

Maqola va video ma'ruza **2020 yilning 1 iyuniga qadar** tashkiliy qo'mitaning elektron manziliga (onlineconference2020@navoiy-uni.uz) talabnomada ishtirokchining anjumanga taqdim etayotgan ma'ruza nomi, ma'ruza matni va ishtirok etish shakli hamda sho'basi aniq ko'rsatilgan holda yuborilishi lozim.

KONFERENSIYADA ISHTIROK ETISH SHARTLARI

Konferensiyada ishtirok etish uchun 2020-yil 1-iyun kuniga qadar tashkiliy qo'mitaga onlineconference2020@navoiy-uni.uz elektron manzili va elektronjurnal@mail.ru elektron pochta orqali quyidagi materiallar elektron shaklda yuborilishi kerak:

1. **Talabnoma** (1-ilova). Ilovani o'z ichiga olgan hujjat quyidagicha saqlanadi: *familiyasi, ismi-sharifi (ilova) .doc.* va boshq.
2. 9x14 hajmdagi **rasm** jpg formatida: *familiya, ismi-sharifingiz. jpg*
3. **Maqola** (2-ilova) - maqolani o'z ichiga olgan hujjat quyidagicha saqlanadi: *familiyasi, ismi, otasining ismi (maqola) .doc.*

4. **Video ma'ruza** (5-7 daqiqa davom etadi) – maqolaning asosiy mazmuni aks etishi lozim; *Familiya, ismi-sharif. (video reportaj) .mp4*

Hujjatlar tashkiliy qo'mita tomonidan saralanadi va ma'ruza mualliflari elektron pochta orqali konferensiyada qatnashishi to'g'risida xabardor qilinadi.

Konferensiya qatnashchisi ikkita sertifikat olishi mumkin: maqola hamda video ma'ruzasi uchun va masofaviy konferensiya materiallari muhokamasida faol ishtirok etganlik uchun.

Konferensiya ishtirokchilari diqqatiga: barcha ma'ruzalar matni plagiatga tekshiriladi.

Konferensiya maqolalarining elektron to'plami 2020 yil iyun oyiga mo'ljallangan.

Nashr bepul.

Konferensiya 2020 yil 15 iyunda soat 11:00 da boshlanadi.

Tashkiliy qo'mitaning manzili: Toshkent shahri, Yusuf Xos Hojib ko'chasi 103;

Murojaat uchun telefonlar: (99 897) 403 00 19; (99 894) 62011 20

ILOVA № 1

Elektron pochta **mavzusida: "Konferensiya"**.

“Madaniyatlararo muloqot va turizm” xalqaro onlayn ilmiy konferensiyasida ishtirok etish uchun ariza.

Namuna arizasi

Familiyasi ismi sharifi	Sotiboldieva Sarvinoz Ruzievna
Ilmiy darajasi, ilmiy unvoni	Filologiya fanlar doktori, dotsent
Ish joyi	A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Lavozim nomi	“Sharq tillari” kafedrasini mudiri, dotsent
Maqolaning nomi	Globallashuv davrida xalqaro turizm tizimidagi ko'p madaniyatli makon

Sho'ba/yo`nalish	Globallasuv sharoitida xalqaro turizm tizimidagi madaniyatlararo muloqot
Telefon raqami, Telegram yoki Whatsappdagi raqam	(+99893) 5454644
Elektron pochta	<u>sarvinozsotiboldiyeva@navoiy-uni.uz</u>

ILOVA № 2

Elektron pochta xabarining mavzusida: “Konferensiya” deb yozilishi kerak.

Maqola matni dizayniga qo'yiladigan texnik talablar:

Muharrir: Microsoft Word. "Times New Roman" shrifti, o'lcham – 14. Sahifa o'lchami – A4, varaqning yo'nalishi – "knijnaya". Sahifaning tomonlari: yuqoridan – 2 sm.; quyidan – 2 sm.; Chapdan – 3 sm.; O'ngdan – 2 sm, paragrafning yozilishi: Chapdan – 0; O'ng – 0; Birinchi qator 1,25 sm. Paragraf oralig'i: oldin – 0; Keyin - 0; Chiziqlar oralig'i – 1.15.

Maqolaning birinchi xatboshisi: o'rtada, katta harflar bilan, qalin qilib - maqolaning to'liq nomi. Maqolaning ikkinchi xatboshisi: o'ngda – Ism muallif (hammualliflar). Maqolaning uchinchi xatboshisi: o'ng tomonda – muassasaning to'liq nomi. To'rtinchi xatboshi: o'ngda – muallifning elektron pochta manzili. Beshinchi xatboshi: kengligi – o'zbek, ingliz va rus tillarida qisqacha referat (4-6 satr). Oltinchi xatboshi: kengligida – o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar (3-5). Sahifalarni raqamlash o'rnatilmagan. Matn ichiga havolalar kvadrat qavs ichida quyidagiga muvofiq berilgan: [1, 21].

Maqolalar joylashtirilgan sahifalar / sahifalarning to'liq sonini ko'rsatadigan manbalarning to'liq ro'yxati maqola oxirida alifbo tartibida "Foydalanilgan adabiyotlar" sarlavhasida keltirilgan. Birinchidan, o'zbek va rus tillaridagi manbalar, keyin esa – xorijiy tillardagi manbalar ko'rsatiladi. Elektron manbalar asosiy adabiyotdan keyin beriladi (alifbo tartibida ham). Maqola hajmi kamida 5-10 sahifa bo'lish lozim, A4 shaklda.

ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА ХАЛҚАРО ТУРИЗМ ТИЗИМИДА КўП
МАДАНИЯТЛИ МАКОН

Sotiboldieva Sarvinoz Ruzievna

Filologiya fanlari doktori, dotsent

A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti

sarvinozsotiboldiyeva@navoiy-uni.uz

Maqola turizmni globallashuv davrida madaniyatlararo muloqotning alohida sohasi sifatida, ushbu tilda mustahkamlangan turizm konseptlarning ba'zi qoidalarini hisobga olgan holda tadqiq qilishga bag'ishlangan va bu o'z navbatida ko'p madaniyatli turizm makonini taqdim etadi.

Kalit so'zlar: madaniyatlararo muloqot, turizm, makon, tushuncha, madaniyat.

Matn

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. Мошняга Е.В. Межкультурная коммуникация и диалог культур в сфере международного туризма– М.,2001. – С. 17–23.
2. A Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment // Общеввропейские компетенции владения иностранным языком: Изучение, обучение, оценка. – Русский перевод Московского государственного лингвистического университета, 2003. – С. 5–13.